



kengroq imkoniyatlar yaratadi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi. Pedagoglar funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanib, turli interaktiv vositalar yordamida kontekstli o'qitishni takomillashtirishi mumkin. Masalan, simulyatsiya, raqamli laboratoriyalar va ta'limiy dasturlar o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vositalar bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar: Pedagogning funksional savodxonligi zamonaviy ta'lim jarayonining sifatini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Kontekstli o'qitish va funksional savodxonlik o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, bu pedagogik yondashuv orqali o'quvchilarni amaliy hayot sharoitlariga tayyorlash mumkin. Shu sababli, ta'lim jarayonida pedagoglarning funksional savodxonligini rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi zarur, chunki bu ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning amaliy bilimlarini mustahkamlash uchun kalit hisoblanadi.

1. Pedagoglarning funksional savodxonligini oshirish uchun doimiy ravishda malaka oshirish dasturlari tashkil etilishi va ularda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'quvlar o'tkazilishi lozim.

2. Ta'lim jarayonida kontekstli o'qitishning amaliyotini kengaytirish uchun muammoli o'qitish usullarini keng qo'llash tavsiya etiladi, chunki bu usullar o'quvchilarning ijodiy va analitik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Вербицкий А.А. Контекстное обучение: теория и технологии. Москва: Изд-во МГУ. -2010
2. Маркова А.К. Формирование профессиональной функциональной грамотности учителей. Педагогика, 2018. 5(2), – 45-53.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING ASPEKTLARI



Dusmuradov Quvonch

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning aspektlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish, pedagoglarning raqamli ko'nikmalarini oshirish va interaktiv o'qitish metodlarining ahamiyati ko'rsatiladi. Malaka oshirish jarayonida raqamli vositalarni qo'llashning afzalliklari va muammolari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, malaka oshirish, ta'lim samaradorligi, zamonaviy tendensiyalar, pedagog ko'nikmalari, o'qitish metodlari.*

Abstract: This article analyzes the aspects of person-oriented education based on digital technologies. The importance of individualization of the educational process with the help of digital technologies, improvement of digital skills of pedagogues and interactive teaching methods is shown. The advantages and problems of using digital tools are studied in the process of professional development.

Key words: *digital technologies, person-oriented education, professional development, educational efficiency, modern trends, pedagogic skills, teaching methods.*

Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston - 2030" Strategiyasiga muvofiq, raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish va ularni keng qo'llash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi, raqamli ma'lumotlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi va ta'limning yuqori sifatini ta'minlashga qaratilgan[1]. Raqamli texnologiyalarni joriy etish yordamida o'qitish jarayonida individual ehtiyojlarni hisobga olish, pedagoglarning raqamli ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, intellektual salohiyatli innovatsion metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu maqsadlar erishiladigan rivojlanish maqsadlari bilan bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonini yanada sifatli va zamonaviy qilish imkonini yaratadi.



Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning asosiy tamoyillaridan biri har bir ta‘lim oluvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos keladigan ta‘lim yondashuvlarini taqdim etishdir. Raqamli texnologiyalar bu yondashuvni yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi, chunki ular ta‘lim jarayonini individualizatsiya qilishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, ta‘lim oluvchilarning o‘qish jarayoniga faolroq jalb etilishiga, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos o‘quv materiallarini tanlash imkoniyatini beradi.

A.A. Verbitskiy ta‘kidlaganidek, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning asosiy maqsadi ta‘lim oluvchini ta‘lim jarayonida faol ishtirok etishga, o‘z bilimlarini shakllantirishga va shaxs sifatida rivojlanishga undashdir[2].

Raqamli infratuzilma va pedagoglarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni joriy etishda dolzarb hisoblanadi. S.A. Mamatov fikriga ko‘ra, “raqamli ta‘limni joriy etish jarayonida pedagoglarni tayyorlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish ustuvor vazifadir.” [3]. Raqamli texnologiyalarning ta‘lim sohasida qo‘llanishi pedagoglar va ta‘lim muassasalari uchun yangi vazifalarni yuzaga keltiradi. Masalan, pedagoglar raqamli vositalar yordamida ta‘lim oluvchilarning o‘qish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini kuzatish, baholash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning natijasida, ular ta‘lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini yaxshiroq tushunib, ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishi mumkin.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim (individualized learning) – bu ta‘lim jarayonida har bir tinglovchini o‘zining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Bu yondashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: O‘quv jarayonining ta‘lim oluvchining o‘ziga xos qobiliyatlariga moslashtirilishi. Ta‘lim oluvchilar o‘zlarining individual tezliklariga mos ravishda o‘rganishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, ta‘lim oluvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar bu jarayonni yanada osonlashtirib, har bir ta‘lim oluvchiga o‘z o‘qish jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatini yaratadi.



Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, ta‘lim oluvchilarga o‘z o‘qish jarayonlarini boshqarish, muammolarni mustaqil hal qilish va o‘z maqsadlariga erishish imkoniyatlarini beradi. Bu yondashuv, ta‘lim oluvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali ularning o‘rganish jarayoni yanada qulay va interaktiv bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar yordamida ta‘lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish maqsadida yangi metodlar qo‘llanilishi mumkin. M.P. Kolesnikova ta‘kidlaganidek, “Raqamli texnologiyalar ta‘lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini beradi, bu esa ta‘lim oluvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta‘limni tashkil etishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni amalga oshirishda bir qator afzalliklarni taqdim etadi:

Masofaviy ta‘limni qo‘llash: Ta‘lim olishning keng imkoniyatlarini ochadi, ta‘lim oluvchilar istalgan vaqtda va joyda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Vazifalarni avtomatlashtirish: Ta‘lim oluvchilarga bir qator vazifalarni bajarishni avtomatlashtirish yoki soddalashtirishga yordam beradi, bu esa o‘qitish jarayonini yanada samarali qiladi.

Ma‘lumotlarga kirish: Kerakli ma‘lumotlarga istalgan joydan kirishni ta‘minlaydi va manbalar bilan ishlashda muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

So‘nggi yillarda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim va raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha yangi tendensiyalar shakllandi, bu esa ta‘lim jarayonini yanada innovatsion va samarali qilishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni joriy etishda bir qator muhim masalalar mavjud.

Raqamli ta‘limni rivojlantirish uchun strategiyalar va rejalar ishlab chiqish zarur. Ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning maqsadlari va vazifalari aniq belgilanishi lozim. Bu, o‘z navbatida, ta‘lim jarayonini yanada samarali va sifatli qilish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarning ta‘lim jarayonida qo‘llanishi uchun jamiyatda raqamli madaniyatni rivojlantirish zarur. Ta‘lim oluvchilarni raqamli madaniyatga o‘rgatish, ularni



raqamli vositalardan samarali foydalanishga tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Bu, o'z o'rnida, ta'lim jarayonining individualizatsiyasini va ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish:

- a) **Onlayn va masofaviy ta'lim:** Ta'lim oluvchilarga istalgan vaqtda o'qish imkonini beradi, o'qitish samaradorligini oshiradi.
- b) **Interaktiv materiallar:** Multimedia va simulyatsiyalar yordamida ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi.
- c) **Nazorat va baholash:** Statistika vositalari orqali o'quvchilarning rivojlanishini kuzatish va ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim oluvchilar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirish va o'zaro tajriba almashish imkoniyatlari yaratiladi. Bu jarayon, ta'lim oluvchilarning malakalarini oshirishda bir-biridan o'rganishlariga yordam beradi va ta'lim jarayonini boyitadi. Yangi texnologiyalar, masalan, virtual va kengaytirilgan haqiqat, shuningdek, sun'iy intellekt, o'qitish samaradorligini oshirishga va o'quvchilarni jalb qilishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarni malaka oshirish dasturlari bilan birlashtirish, ta'lim oluvchilarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini beradi hamda ularning professionallik darajasini oshiradi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan shaxsiy o'qitish rejalari yaratish orqali malaka oshirish jarayonini individualizatsiya qilish mumkin. Bu yondashuv, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olishni ta'minlaydi.

Xulosa

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llash shaxsga yo'naltirilgan ta'limning afzalliklarini oshiradi, ta'lim oluvchilarni jarayonga jalb etadi va pedagoglarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Biroq, muammolar va dolzarb masalalarni hal qilish zarur.

Hamkorlikni kuchaytirish ta'lim sifatini oshirish va kelajak avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlashda muhimdir. Ushbu maqolada keltirilgan fikrlar, shaxsga yo'naltirilgan



ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun asosiy yo'nalishlarni belgilaydi, kelgusi o'zgarishlar esa jamiyat va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-son Farmoniga, "RAQAMLI O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASINI TASDIQLASH VA UNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA
2. Вербицкий, А.А. Школьное образование и личностно ориентированное обучение. Москва-2005
3. Маматов, С.А. Цифровое образование: проблемы и решения. Ташкент-(2021).

ENHANCING FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN PROFESSIONAL DEVELOPMENT: INNOVATIONS AND STRATEGIES FOR QUALITY IMPROVEMENT

Akhbutayeva Feruza Gofurovna

Doctoral student of Institute for Retraining and Professional
Development of Higher Education Personnel

Abstract: This article deals with problems of teaching foreign languages in professional development system. It is devoted to the analysis of the specifics of linguistic teaching, the directions, types and forms of foreign language teaching which raising it to a new level of quality, introducing advanced pedagogical and information technologies to it.

Keywords: foreign languages, competence, linguistics, four language skills, self-development, professional development.

Introduction